



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES



ENGLAND CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND
EDUCATION**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION: a collection scientific works of the International scientific conference – London, England, 2026. Issue 1

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference «**INTERNATIONAL CONFERENCE ON MULTIDISCIPLINARY STUDIES AND EDUCATION**». Which took place in London , 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.





Fargʻona vodiysida oʻtish davri bosqichlarida sogʻliqni saqlash sohasining moddiy-texnik holati

Azimova Maftuna Muhammadaaminovna,

Qoʻqon universiteti oʻqituvchisi

maftunaazimova67@gmail.com, Tel: (88) 811-67-57

ORCID ID-0009-0000-8123-9862

Annotatsiya. Mazkur maqolada oʻtish davri bosqichlarida Fargʻona vodiysida tibbiyot sohasining moddiy-texnik holati yuzasidan fikrlar ilmiy asosda muhokama etilgan. Xususan, sovetlar hukumronligi yillarida aholi salomatligini muhofaza qilish ishlarining holati, tizimning moddiy-texnik bazasidagi muammo va kamchiliklar, hamda sohada faoliyat olib borgan shifokorlarning maʼlumoti toʻgʻrisidagi masalalar ilmiy asosda tahlil etilgan.

Kalit soʻzlar: Salomatlik, tibbiy xizmat, prezident farmonlari, qonun, normativ hujjatlar, turmush tarzi, sanitariya nazorati, tibbiyot muassasasi, tibbiy xizmat, amaliyotchi shifokor.

Kirish. Mustaqillik yillariga kelib sogʻliqni saqlash tizimiga alohida eʼtibor qaratildi. Ammo moddiy-texnika bazasini mustahkamlash tadbirlari chuqur tahlil etilsa, xato va kamchiliklar mavjudligi yaqqol namoyon boʻladi. Sovet davrida sogʻliqni saqlash sohasi istiqbolini belgilashda Oʻzbekistonning tabiiy sharoiti va iqlimi xususiyatlari hisobga olinmadi. Sogʻliqni saqlash sohasini rivojlantirishga passiv yondashilib, ekstentiv tizim faoliyatini baholashning asosiy mezonlari – davolash oʻrinlari, tibbiyot xodimlari, shifoxonalar, poliklinikalar va ambulatoriyalar sonining koʻpayishi bilan oʻlchandi. Sifatga zarar boʻlsada, miqdor koʻrsatkichlari ketidan quvishga katta eʼtibor qaratildi. Zoʻrma-zoʻraki ravishda davolash muassasalari sonini koʻpaytirishga harakat qilish tufayli shifoxona va boshqa davolash maskanlari qulaylikka ega boʻlmagan, moslashtirilmagan binolarda joylashtirildi. Davlat tomonidan belgilangan rejalarni oshirib bajarish uchun “qushib yozish” yoʻlidan borilib, yotoqxonalar, uy-joy binolarida kasalxonalar tashkil etildi. Shifoxonalarning moslashtirilgan binolarda joylashtirilganligi sababli ularda zamonaviy tibbiy texnika va apparatlar qoʻllash imkoniyati cheklandi. Sogʻliqni saqlash ishiga ajratilgan mablagʻlar koʻp hollarda toʻla obarcha sohalar jar yoqasiga kelib qolgan edi. Ittifoq aholisiga nisbatan kasallanish yuqori boʻlgan respublika aholisiga jami 71 ming 100 nafar shifokorlarlar xizmat koʻrsatgan. Istiqbol arafasida mamlakat aholisining 8 millionga yaqini xastaligi tufayli tibbiy muassasalarga murojaat etib turgan. Shulardan, qariyb, 240 ming nafari yuqumli kasalliklar, jumladan, 120 ming nafari gepatit bilan ogʻrigan boʻlsa, ularning 70 foizini bolalar tashkil qilar edi.[1,233] Bu raqamlar respublikada sohaning infratuzilmasi har jihatdan yetarlicha tashkil etib borilmaganligini koʻrsatar edi.

1991-yilda mustaqillikka erishgandan soʻng, tibbiyot tizimi sovet davridan qolgan moddiy-texnik baza bilan ishladi: koʻplab shifoxonalar va poliklinikalar eski binolarda, yetarli diagnostika uskunalari va zamonaviy asbob-uskunalarsiz qolgan.

Zarur kapital investitsiyalar yetishmasligi va eskirgan tibbiy jihozlar holati xizmat sifatiga salbiy taʼsir koʻrsatgan. Ayniqsa qishloq hududlarda infratuzilma sust va noteng taqsimlangan edi. Shu sababli mustaqillikning dastlabki yillarida sogʻliqni saqlash moddiy-texnik bazasi eskirgan, investitsiya darajasi past va infratuzilma muammolari mavjud edi.

Xususan, 1980-yil oxirlarida Namangan viloyat aholisi soniga nisbatan shifoxonalardagi oʻrinlar butun Ittifoqdagi koʻrsatkichlardan kam edi. Agar Respublikada 10000 nafar aholiga 101 ta oʻrin toʻgʻri kelgan boʻlsa, viloyatda ushbu raqam 88,3 tani tashkil etgan. Bunday koʻrsatkichlar Uychi tumanida 64,3 ta, Chustda esa 56 tani tashkil etardi. Kasalxonalardagi oʻrinlar yangi qurilgan shifoxonalar hisobiga atigi 35% ga toʻgʻri kelgan. Natijada, har bir bemorga 6,5 kvadrat metr joy boʻlishi oʻrniga 2–2,5 kvadrat metrdan joy toʻgʻri kelgan.[2,8]

Respublikaning aholi soni koʻp boʻlgan Fargʻona va Andijon viloyatlaridagi ahvol bundanda ogʻirroq edi. Respublika boʻyicha kolxozlar hisobidan 325 oʻrinli shifoxonalar va smenada 1





ming 238 qabulga mo'ljallangan poliklinikalar bunyod etildi. Andijon viloyati Qorako'l kolxozi qoshidagi shifoxona va Farg'ona viloyati Toshloq qishlog'idagi reabilitatsiya binosi shular jumlasidandir.[3,55]

Respublika 1995-yillarga nisbatan iqtisodiy jihatdan siljish holatiga kelganidan keyin eng avvalo aholi salomatligini muhofaza qilishga e'tibor qaratildi. Xususan birinchi navbatta respublikada mavjud shifoxonalarning moddiy-texnik holatini yaxshilash bo'yicha ishlar olib borildi.

Jumladan, Andijon viloyatida mustaqillikning ilk yillaridan aholi salomatligini saqlashda qator ibratli ishlar amalga oshirildi. Olimlarimiz e'tirof etganlaridek, xalq salomatligini saqlashda tibbiyotning roli 8–12 foizni tashkil qilib, 88–92 foizi ijtimoiy-maishiy ta'minot qay darajadali, irsiyat (odamning nasl-nasabi), aholini yashash sharoiti, turmush tarzi, atrof muhitning holati, ovqatlanish, madaniyatning rivojlanishi kabi muammolarning qay darajadali bog'liqdir. Qolaversa, xo'jalik, tashkilot, muassasa va korxonalarining rahbarlari fuqarolar sog'lom bo'lishsa, mehnat unumdorligi oshishiga, belgilangan rejalar bajarilishi mumkinligini tushunib yetdilar. Shu sababli xalq salomatligini saqlashda faqat tibbiyot xodimlari bosh qotiribgina qolmay, barcha tashkilot, xo'jalik, korxonalar rahbarlari ishchi-xizmatchilarning salomatligini saqlash borasida ko'plab ishlar amalga oshirili.

Andijon viloyatida 1995-1998 yillar mobaynida 26 ta zamonaviy davoxona qurilib, foydalanishga topshirildi. Ayniqsa, Paxtaobod, Qo'rg'ontepa, Bo'z va Andijon tuman hokimliklari, Andijon to'qimachilik kombinati, Xo'jaobod tumanidagi Madiyev nomli bog'dorchilik davlat xo'jaligi, Qo'rg'ontepa paxta tozalash zavodi, viloyat suv xo'jaligi boshqarmasi va boshqa qator korxona hamda qurilish tashkilotlari, avtotransport korxonalari, jamoa xo'jaliklari rahbarlari o'z fuqarolarining dam olishi, sog'liklarini yaxshilashlari uchun davoxona va sanatoriy-profilaktoriylar qurdilar, borlari ta'mirlandi.

Marhamat tumanidagi 70 o'rinli "Marhamat" sanatoriy-profilaktoriyasi, Qo'rg'ontepa tumanidagi 600 qabulga mo'ljallangan shifoxona, Izboskan tumanidagi sanitariya-epidemiologiya stansiyasi, Xonobodagi bir smenada 410 qatnovga mo'ljallangan poliklinika, Andijon shahrida qad rostlagan stomatologiya poliklinikasi shular jumlasidandir.

Shuningdek, Paxtaobod tumanida 150 o'rinli markaziy shifoxona, Izboskan tumanida 150 o'rinli yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Marhamat va Komsomolobod tumanlarida ona va tug'ruq uylari, Andijon tumani markaziy shifoxonasi hamda Jalolquduq tumanida 60 o'rinli shifoxona qurildi. Viloyatdagi 133 qishloq vrachlik ambulatoriyasining ko'pchiligi, Avvalyanov tumanidagi 14 ta ana shuday shifoxonalardan 11 tasi Paxtaobod tumanidagi kasalliklarni davolash uchun zarur barcha qulayliklarga ega binolarda faoliyat ko'rsatdi. Bu davolash muassasalarida har bir bemorga mo'ljallangan o'rinlarni ikki barobarga kengaytirish imkonini berdi.

Agar 1995-yillarda bir o'ringa 2–3 kvadrat metr joy to'g'ri kelgan bo'lsa, 1998-yilga kelib, 7–8 kvadrat metr to'g'ri kelmoqda. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, tug'ruq yoshidagi ayollarni sog'lomlashtirish, homilador onalar va bir yoshgacha bo'lgan go'daklar o'limining oldini olish, sog'lom avlod uchun kurash bugunning bosh vazifasi hisoblanadi. Respublika Sog'liqni saqlash vazirligining bu boradagi "Kompleks dasturi" asosida viloyat sog'liqni saqlash bo'limining tadbirlarini ishlab chiqdik.[4,253]

Ana shu dastur asosida tug'ruq yoshidagi 447 ming nafar ayolning barchasi dispanserlik ko'rigidan o'tkazildi. Ularning ko'pchiligida ginekologik dardlardan tashqari kamqonlik, buyrak va yurak hamda boshqa xastaliklar borligi aniqlandi. Ko'rik natijalariga ko'ra xotin-qizlar maslahatxonalari faoliyatini kengaytirish, lozim bo'lganda homilador ayolni ginekolog va pediatrdan tashqari boshqa mutaxassislar ishtirokida tibbiy ko'rikdan o'tkazish belgilandi.

Ko'rik natijalariga ko'ra xotin-qizlar maslahatxonalari faoliyatini kengaytirish, lozim bo'lganda homilador ayolni ginekolog va pediatrdan tashqari boshqa mutaxassislar ishtirokida tibbiy ko'rikdan o'tkazish, qo'shimcha muolajalar belgilash chora-tadbirlarini ko'rdik.





Ayollar uchun xizmat qiladigan 28 ta tug‘ruq uylari va bo‘limlari qayta jihozlanib, bolalar va ayollarga jadal hamda reanimatsion yordam ko‘rsatish maqsadida 1-viloyat bolalar klinik shifoxonasida reanimatsion brigada, 1-shahar klinik shifoxonasida kasal tug‘ilgan chaqaloqlarga yordam ko‘rsatuvchi neonatologik markaz, tumanlarda esa ayollarga jadal yordam beruvchi gematologik brigadalar tashkil etildi.

Shuningdek, tug‘ruqxonalar huzurida qon ketishini kamaytirishda yordam beradigan akusher-ginekolog, reanimatolog, gematolog va laborant shifokorlardan iborat reanimatsion brigadalar xizmati yo‘lga qo‘yildi. Ko‘rilgan chora-tadbirlar o‘z samarasini berdi. Natijada inqirozli holatdagi onalar va bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi 1,5–2 barobarga kamaydi, shuningdek kasal, nogiron va nimjon chaqaloqlar tug‘ilishi sonini kamaytirishda ham ijobiy siljishlarga erishildi.

Namangan viloyatida mustaqillikning dastlaki yillarida 19110 o‘ringa ega bo‘lgan 120 ta kasalxona, 12 ta sanatoriya, 45 ta qishloq uchastka kasalxonasi, 470 ta feldsher-akusherlik punktlari faoliyat ko‘rsatdi. Dorixonalar soni 157 taga yetdi. Viloyatda respublika ahamiyatiga molik “Chortoq”, “Paxtaliko‘l”, “Parda Tursun” sanatoriylari qayta tashkil etildi. 1991 yil sog‘liqni saqlash tarmog‘iga ajratilgan byudjet-mablag‘ 14,5 mln. so‘mni tashkil etdi. Har bir kishiga yetadigan mablag‘ 96 so‘mdanga to‘g‘ri keldi.

1994 yili viloyatda 16 ta “Tez yordam” stansiyasi faoliyat yuritdi. Chunonchi, 1992-1994 yillarda Go‘zal mavzesida ko‘p tarmoqli bolalar shifoxonasi, ona va bola birga bo‘lishiga mo‘ljallangan tug‘ruqxona, ayollar maslaxatxonasi, Uychi, Uchqo‘rg‘on, Chortoq tumanlarida eng zamonaviy tibbiyot jihozlari, asbob-uskunalar bilan ta‘minlangan poliklinika, tibbiyot punktlari, Chernobil halokati qatnashchilari uchun sanatoriya, Namangan shahrida yurak xastaliklarini davolovchi kardiologiya markazi barpo etildi.

Namangan viloyatida mustaqillikning 10 yili mobaynida 104 ta qishloq shifokorlik punktlari barpo etildi, 41 ta qishloq shifokorlik amblatoriyasi va feldsher-akusherlik punktlari qishloq shifokorlik punktlariga aylantirildi. Shu davrda 1505 o‘rinli kasalxona, bir smenada 43,7 ming bemorni qabul qiluvchi poliklinikalar qurib bitkazildi, shoshilinch tibbiy yordam markazi, viloyat ko‘p tarmoqli kasalxonasi, o‘sma kasalliklar, Namangan shahar onalar va bolalar fizioterapevtik, yuqumli kasalliklar kasalxonasi foydalanishga topshirildi. Ular zamonaviy tibbiyot apparatlari, asbob-uskunalar bilan jihozlandi. Namanganda Semashko nomidagi respublika fizioterapevtik ilmiy tadqiqot instituti, respublika akusherlik va ginekologiya ilmiy tadqiqot instituti hamda respublika salomatlik institutlarining viloyat filiallari, nevrologiya, endokrinologiya va urologiya markazlari faoliyat ko‘rsatmoqda.[5,138]

Farg‘ona viloyatida aholini tibbiy yordam bilan ta‘minlash samaradorligini oshirish maqsadida pullik xizmatlar yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 1991-yilda 100 dan ortiq pullik tibbiy xizmat turlari shakllantirildi. Faqatgina o‘tgan yilda aholiga 5 million 779 ming so‘mlik pullik tibbiy xizmat ko‘rsatilgan bo‘lsa, ushbu ko‘rsatkich 1990-yilga nisbatan 1,7 barobar ko‘p ekanligini namoyon etdi. Hududda 3 ta markaziy, yuqumli kasalliklar hamda Oxunboboyev qishloq kasalxonalari faoliyat yuritadi. Ular 480 o‘ringa mo‘ljallangan. Shuningdek, markaziy poliklinika, oltita jamoadan iborat “Tez tibbiy yordam” stansiyasi mavjud edi. 1991-yilda 2 ta qishloq shifokorlik punktlari, 1 ta feldsherlik-akusherlik maskani barpo etildi. Tumanda shifokorlar bilan ta‘minlanish darajasi har 10.000 nafar aholiga 2,8 ni tashkil etdi. 1992-yilda 17 ta oliy ma‘lumotli pediater-shifokor faoliyat yuritgan. “Sog‘lom avlod dasturi” doirasida 14 yoshgacha bo‘lgan bolalar sog‘lig‘ini tiklash bo‘yicha nodavlat tashkilotlar va chet el hamkorlari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yildi.

1992-yilda Farg‘ona viloyati markazida jonlantirish bo‘limi ish boshladi. Ushbu bo‘lim 6 o‘ringa mo‘ljallangan bo‘lib, u turli xil tibbiy uskunalar bilan jihozlandi. Bu yerda Polshada ishlab chiqarilgan, davolash jarayonini kuzatuvchi “Kordiorepiromonitor-RMN-201” apparati o‘rnatilgan bo‘lib, u birdaniga olti nafar bemorning ahvolini nazorat qilish imkonini beradi. O‘zbekistonda ishlab chiqarilgan “Defibrilyator”, bemorga kislorod yetkazib beruvchi “KIS-2”,





ma'lum vaqt davomida to'xtagan yurak faoliyatini elektr toki yordamida tiklaydigan "EKS-15-4", "EKS-PD" kabi tibbiy uskunalar bo'lim ishini rivojlantirishga xizmat qildi. Ushbu bo'limda o'tkir yurak yetishmovchiligi, yurak ishida kuzatilgan nuqsonlar – gipertoniya krizi, yurak ishemik kasalligining og'ir shakllari bilan og'rikan bemorlarni davolash ishlari yo'lga qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 21 maydagi "O'zbekiston Respublikasi qishloqlari ijtimoiy infratuzilmasini 2000 yilgacha bo'lgan davrda rivojlantirish davlat dasturi to'g'risida"gi qaro-riga muvofiq, sog'liqni saqlash sohasida mutlaqo yangi muassasa – qishloq vrachlik punktlari tashkil etish va aholiga dastlabki feldsherlik yordami emas, balki malakali vrachlik yordami ko'rsatish ko'zda tutildi. Qishloq vrachlik punkti uchun hamma ko'rsatkichlar: moddiy ta'minot, kadrlar, zamonaviy asbob-uskunalar va dori-darmonlar bilan ta'minlash bo'yicha xalqaro standartlarga mos keladigan maxsus mezon ishlab chiqildi"

Aynan mustaqillikdan keyingi amaliy ishlar natijasida "respublika tibbiyoti erishgan natijalardan eng muhimi, onalar va bolalar o'limi kamaydi. Hukumat tomonidan ishlab chiqilgan "Homilador ayollarni va bolalar salomatligini mustahkamlash" bo'yicha milliy dasturi, hamda "Yosh avlodni sog'lomlashtirish kompleks Dasturi"ning ishlab chiqilganli-gi va amalga oshirilishi natijasida 1996 yilda onalar o'limi 1991 yilga nisbatan 4,4 marta, chaqaloqlar o'limi esa 1,8 martaga kamaydi".[6,144]

Farg'ona viloyatida 1998–2005-yillarga mo'ljallangan dastur ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu rejaga ko'ra viloyat shahar va tumanlarida shoshilinch tibbiy xizmatni qamrab olgan tezkor yordam ko'rsatish ilmiy markazining viloyat filiali faoliyat olib bordi. Shahar va tuman markaziy shifoxonalari negizida ham tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha 18 ta bo'lim faoliyat yuritdi. Shahar va qishloqlarda aholiga qonuniy asosda tibbiy xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan 8 ta silga qarshi dispanser, 16 ta yuqumli kasalliklar shifoxonasi, 3 ta ruhiy kasalliklar shifoxonasi, 8 ta qishloq uchastka shifoxonalari faoliyati yo'lga qo'yildi. Qishloq vrachlik ambulatoriyalari, poliklinika muassasalari, qishloq shifokorlik punktlari soni 501 taga yetkazildi. Poliklinikalarda 1–2 o'ringa ega bo'lgan xonalar tashkil etildi. 1999-yilda tibbiy xizmat ko'rsatish muassasalari soni 57 taga yetgan bo'lsa, 2000–2001-yillarga kelib ularning soni 87 taga oshdi

1998-yillarga kelib aholi zich joylashgan Farg'ona vodiysida, ayniqsa shaharlarda, tabiatga odamzotning salbiy ta'siri natijasida atrof-muhit buzilishi hamda atmosfera havosining bulg'anishi bilan bog'liq yuzaga kelgan holatlarni bartaraf etish uchun qulayliklar yaratish borasida shoshilinch chora-tadbirlar ko'rildi. Jumladan, profilaktika ishlarini yanada yaxshilash, aholini yalpi tibbiy ko'rikdan o'tkazish hamda davolashning tez va samarali usullarini qo'llash yo'lga qo'yilmoqdi.

Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish, sog'liqni saqlash va uni mustahkamlash masalalari birinchi navbatdagi vazifa sifatida belgilandi. Davolash-profilaktika muassasalarining moddiy-texnika bazasini yaxshilashga alohida e'tibor qaratildi. Vodiyning barcha shaharlarida bir qator zamonaviy tibbiyot muassasalari foydalanishga topshirildi.

Birgina 1998-yilning o'zida Qo'qon shahrida hozirgi zamon talablariga to'liq javob beradigan, vodiya yagona bo'lgan 140 o'rinli ko'z kasalliklari shifoxonasi, 60 o'rinli bolalar jarrohlik kasalxonasi, shuningdek bir kunda 250 nafar bemorni qabul qila oladigan, barcha zarur anjom-uskunalar bilan jihozlangan shifoxona foydalanishga topshirildi.

Andijon shahrida 600 nafar bemorni qabul qilish quvvatiga ega bo'lgan 5-poliklinika binosi, kuniga 250 nafar bemorni qabul qilish imkoniyatiga ega bo'lgan shahar stomatologiya poliklinikasi, quvvati 300 kishilik 1-va 2-o'smirlar poliklinikasi, 2-kattalar poliklinikasi binosi hamda yiliga 75 ming chaqiruvga xizmat ko'rsatuvchi shahar "Tez tibbiy yordam" stansiyasi binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. Qo'rg'ontepa shahrida 600 qabulga mo'ljallangan, 15 bo'limdan iborat shifoxona, 30 o'rinli kunduzgi shifoxonasi mavjud bo'lgan poliklinika bir yil ichida qurilib, zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlandi.





Namangan shahrida esa onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish markazi, ko'p tarmoqli bolalar shifoxonasi, 100 o'rinli kardiologiya markazi, 120 o'rinli o'sma kasalliklari shifoxonasi, yuqumli kasalliklar shifoxonasi, Namangan avrli gazlamalar ishlab chiqarish birlashmasiga qarashli sanatoriy-profilaktoriyning ikkinchi navbati, shahar "Tez yordam" shifoxonasi hamda viloyatda birinchi bo'lgan 25 o'rinli ko'krak kasalliklari bo'limi tashkil etildi.

Bundan tashqari, Namangandagi "Elektroterm" ishlab chiqarish birlashmasi qoshida faoliyat ko'rsatib kelayotgan bir qator ichki ishlab chiqarish bo'linmalari, jumladan, bemorlikka chalingan kishilarni davolashga ixtisoslashgan shifoxona urologiya markaziga aylantirildi. Shuningdek, Andijon ip-gazlama ishlab chiqarish birlashmasi qoshidagi salomatlik bo'linmasida murakkab kardiologik operatsiyalar o'tkazilmoqda. Tibbiyot ilmi bilimdonlari, qobiliyatli mutaxassislar tomonidan zamonaviy davolash usullari amaliyotga joriy etildi. Yangi qurilib foydalanishga topshirilayotgan muassasalarni zamonaviy tibbiyot jihozlari va uskunolari hamda dori-darmon bilan ta'mindi.

Namangan shahrida yangi ishga tushirilgan elektr tarmoqlari korxonasining 60 o'rinli shifoxonasi 10 million so'mlik zamonaviy tibbiy jihozlar bilan ta'minlandi. Andijondagi kardiologiya markazi ham Germaniya, AQSh, Yaponiya, Shvetsiyadan keltirilgan zamonaviy tibbiy anjomlar bilan jihozlandi.

Sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inini mustahkamlash maqsadida 2001-yilga kelib Respublikamizda 1626 ta QVP, shu jumladan 857 tasi yangi qurilish va 769 tasi qayta o'zgartirish hisobiga ishga tushirildi. 2005-yilning yakuniga kelib qishloq vrachlik punktlarining soni 2800 taga yetishi lozim.

Xulosa. Ushbu jarayonlarni tahlil etishda QVP lar tashkil qilish rejasi hamma vaqt ham o'z vaqtida bajarib borilmaganligini aniqladi. Masalan, 2001 -yilda Davlat Dasturi bo'yicha 371 ta, hokimiyat tomonidan 271 ta qishloq vrachlik punktlari tashkil etilishi ko'zda tutilgan bo'lsa haqiqatda 242 ta qishloq vrachlik punktlari foydalanishga topshirilgan. Bundan shuni ko'rishimiz mumkinki Davlat dasturini bajarish borasida jiddiy qiyinchiliklarga duch kelingan. Jumladan, yangi qurilish hisobiga 110 ta, qayta o'zgartirish hisobiga esa 132 ta QVP ochilgan. Bu esa 2001 -yilda yillik rejaning 65,2 foizga bajarilganligini ko'rsatadi. Qishloq vrachlik punktlarining qurilishi bu davrda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarida birmuncha og'ir kechganligini ko'rishimiz mumkin. Ammo hukumatning say harakatlari bilan bunday qiyinchiliklar yengib o'tildi. 2013 -yilga kelib Qishloq vrachlik punktlarining soni va ularda ko'rsatilayotgan xizmatlarning soni va salmog'i ortdi. Bugungi kunda eng chekka tumanlardagi xotin-qizlar va bolalarga ham malakali tibbiy yordam ko'rsatilmoqda. Zamonaviy apparatura bilan jihozlangan qarib 3200 Qishloq vrachlik punkti tashkil etildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи. Учинчи китоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2000. – Б. 232–233.
2. Namangan viloyati davlat arxivi. 275-fond, 6-ro'yxat, 1853-ish, 7–8-varaqlar.
3. Abduxalimov A. Farg'ona vodiysi sog'liqni saqlash tizimidagi modernizatsiya jarayonlari tarixi (1991–2023-yillar) Monografiya. – Toshkent; "Nurafshon business", –2024. – Б. 45.
4. О'zbekistonda sog'liqni saqlash.//2001-yil 5-yanvar. 1-son.
5. Сихат саломатлик журнали.// 1998-йил. 5-сон.
6. Наманган ҳақиқати.–1991.–27 март.
7. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6–том. – Т., 2003. – С. 253.
8. Фарғона шифокори. – 1991 йил 14 май. – №5.
9. Фарғона шифокори. – 1992 йил 11 ноябрь. – №11.
10. Джуманов. С. Б. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш асосий йўналишларининг ривожланиш тарихи. (1991-2015 йй) Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун тайёрланган дисс. – Тошкент, 2019. – Б. 54.
11. Файзуллаев Т., Саримсоқов А. Мустақил Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ривожланиши. – Наманган, 2013 – Б. 138.
12. Жўраев Н., Файзуллаев Т. Ўзбекистоннинг янги тарихи.... – Б. 144
13. Фарғона шифокори. – 1991 йил 14 май. – №11.

